

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Irgasheva G. O'zbekistonda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb etishning huquqiy jihatlari. "O'zbekiston sug'urta bozori" ilmiy-amaliy jurnali, №6, 2024-y. <https://insurance.tsue.uz>
2. Islomiy moliya rivojlanishi to'g'risidagi hisobot (IFDR) 2024
3. [EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN \(2\).pdf](#)
4. Daniyar Mamyrov. Islamic finance in Kyrgyzstan: From pilot project to sustainable Islamic financial system. dmamyrov@gmail.com Kyrgyzstan. December 2025. Page 126
5. [https://eabr.org/upload/iblock/ca2/EDB ISDB 2025 Central-Asia Islamic Finance Report EN.pdf](https://eabr.org/upload/iblock/ca2/EDB_ISDB_2025_Central-Asia_Islamic_Finance_Report_EN.pdf)
6. Zayniddinov R.X. Qozog'istonning islom moliyasi borasidagi tajribasidan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari. // O'zbekiston sug'urta bozori. 9-son, 2024-y. 9-bet.

MOLIYA BOZORLARINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ISLOM MOLIYA MUASSASALARI O'RNI

Qaxramonova Gulandom Qodirali qizi,

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya. Maqolada islom moliya tizimi mohiyati va undagi islom moliya tashkilotlari faoliyati haqida umumiy tushunchalar berilgan. Shu bilan birga, islom moliya tashkilotlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati haqida qisqacha to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlari: Islom moliyasi, islom moliya muassasalari, ribo, g'arar, real aktivlar, risk bo'lishish, halol inestitsiyalar, mushoraka va mudoraba, murobaha, salam va istisno.

So'ngi yillar mobaynida jahon moliya tizimida muqobil moliya modellarining ahamiyati oshib bormoqda. Global iqtisodiy inqirozlar, qarzga asoslangan iqtisodiyotning beqarorligi hamda spekulativ operatsiyalarning oshishi natijasida yangi barqaror va axloqiy moliya tizimalari ehtiyojini oshirdi. Shunday tizimlardan biri bu islom moliya tizimidir. Islomiy moliya tizimi muqobil moliya tizimi sifatida nafaqat o'zining ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish balki, asosiy maqsad foyda olish, iqtisodiy adalotni ta'minlash bilan birgalikda real iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilishdir.

Islom moliya tizimining mohiyati bu moliyaviy munosabatlarning Shariat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etuvchi tizim bo'lib, u²⁶⁶:

- Riskni bo'lishish tamoyiliga asoslanadi;

²⁶⁶ Islom moliyasi asoslari/S.M.Dusanov.-Toshkent,2024.-16b.

- Real aktivlarga tayanadi;
- Halol investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi;
- Ribo(foiz)ni taqiqlaydi;
- G'arar(noaniqlik)ni cheklaydi. Bu tizim butun iqtisodiy muhitni shu tamoyillar asosida qamrab oladi.

Islom moliya muassasalari(ba'zi adabiyotlarda Islom moliya tashkilotlari) esa bu yuqoridagi tizimni amaliyotga tatbiq etuvchi institutlar hisoblanadi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi²⁶⁷:

- Xalqaro rivojlanish institutlari;
- Kapital bozorlari;
- Islom banklari;
- Takoful kompaniyalari;
- Mikromoliya institutlari;
- Investitsion fondlar;
- Standart va nazorat organlari;
- Ijtimoiy moliya institutlari;

Demak, ilmiy jihatdan shunday xulosaga kelinadiki, tizim bu nazariy asos vazifasini bajarsa, islom moliya tizimini bu Shariy qonun-qoidalar va tamoyillar majmuidir. Yuqorida ta'kidlangan islom moliya muassasalari esa bu amaliy mexanizm hisoblanadi. Bunda, amaliy ijro holatida, shariatga muvofiq operatsiyalar oprqali riskni bo'lishish va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Islom moliya muassasalarining asosiy moliyaviy operatsiyalari (ba'zi adabiyotlarda moliyaviy instrumentlari) mushoraka, mudoraba, murobaha, takoful, ijara, salam va istisnolar hisoblanadi.

Mushoraka – kapital sherikchiligidir, bunda foyda ham zarar ham sheriklarning kapitaldagi ulushiga qarab bo'linadi.

Mudoraba esa sherikchilikning maxsus turi bo'lib, bunga misol sifatida, kapital bir tomondan ta'minlansa, biznesni boshqarish ya'ni mehnat ikkinchi tomondan hisoblanadi.

Murobaha – sotuvning bir turi hisoblanib, amalda ma'lum bir muddatga bo'lib to'lash sharti bilan ikki tomon o'rtasidagi shartnoma asosida qilinadigan savdodir.

Takoful- bu islmiy sug'urta tizimi bo'lib, u o'zaro yordam va hamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Bu shartnomada ishtirokchilar badal to'laydi, bu mablag' jamg'ariladi. Mobodo, zarar yuzaga kelsa, shu jamg'armadan to'lanadi.

Ijara nomidan ham bilishimiz mumkinki, ma'lum bir aktivni ma'lum muddatga foydalanishga berishdir. Zamonaviy lizing tushunchasiga bog'lash mumkin.

Salam – bu ham savdoning bir turi hisoblanib, kelajakda yetkaziladigan aktiv uchun oldindan 100% to'lanadigan savdo bitimidir. Ikki tomonlama shartnomada summa, joyi, vaqti aniq ko'rsatilishi shart bo'lgan savdo bitimidir.

²⁶⁷ Abdullayev R.V., Dusanov S.M. Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar.T.:”Toshkent islom universiteti”,2017.- 6b.

Istisno esa salanga o'xshash tijorat muomalasining yana bir turi bo'lib, mahsulot paydo bo'lishidan oldin uning oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Sodaroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, ishlab chiqaruvchi xaridor uchun muayyan tovarni ishlab chiqarish buyurtmasini oladi.

Islom moliya tashkilotlari moliyaviy barqarorlikdagi ahamiyati va o'rniga e'tibor qaratar ekanmiz, ularning zamonaviy tendensiyalarini ta'kidlab o'tishimiz ahamiyatlidir²⁶⁸:

- Raqamli bank xizmatlarini joriy qilmoqda;
- Zamonaviy moliya texnologiyalaridan eng aktiv holatda foydalanmoqda;
- Barqaror moliyaga e'tiborini kuchaytirmoqda;
- Global kapital bozorlarida sukuk (islomiy qimmatli qog'ozlar) emissiyasini oshirmoqda.

Bu kabi tendensiyalar orqali albatta ularning muqobil moliyaviy model sifatida ko'rilishi ma'lum holat. Undan tashqari bu tendensiyalar natijasida moliyaviy barqarorlik oshadi, ijtimoiy adolat ta'minlanadi ya'ni boylikni jamiyat o'rtasida to'g'ri taqsimlanishi kafolatlanadi, tadbirkorlar uchun kichik biznesni qo'llab-quvvatlanadi, investitsiya muhiti yaxshilanadi, aholini quyi qatlamigacha xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi, riskni adolatli taqsimlash orqali esa moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Yurtimizda sharoitida ham rivojlanish istiqbollari mavjud. Chunki, islom moliyasiga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga asos qilib hattiki qonun hujjatlarini ham keltirishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ham bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari va tashabbuslar talqinida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish bo'yicha pirovard maqsadni ilgari surganlar.

2022-yil 20-apreldagi *mikromoliya tashkilotlari islom moliyasi tamoyillari asosida qarzlarni berishi mumkinligi bo'yicha "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun imzolandi*²⁶⁹.

Islom moliya muassasalarining yuqoridagilar bilan bir qatorda eng asosiy huquqiy asosi bo'lib 2024-yil 19-iyuldagi "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi Nizom hisoblanadi"²⁷⁰ kabi bir qator qonun doirasidagi chora-tadbirlarni misol keltirishimiz mumkin.

Demak, davlat miqyosida bu yo'nalishga ehtiyoj sezilar ekan, bunga talab yuqori. Aholining kotta qismi foizsiz moliyalashtirishga ehtiyoj sezadi. chunki, bu holat asnosida milliy iqtisodiyot o'sadi, tashqi va ichki investitsiyalarni jalb

²⁶⁸ Jo'rayev B. Islomiy moliyalar va bank tizimi: falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. T.: "O'zbekiston", 2014. - 56b

²⁶⁹ O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.

²⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank boshqaruvining "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori

qilinadi, tadbirkorlikni, kichik va o'rta biznesni rivojlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va bu kabi bir necha boshqa pozitiv natijalarini sanashimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash qachon yuzaga keladi? Qachonki, bunga moliyaviy shart-sharitlar yetarlicha bo'lsagina. Bu kabi shart-sharoitlarning o'ziga yarasha talablari ham bo'ladi. Hech narsa o'z-o'zidan yaratilib qolinmaydi. Bizda yuzaga kelayotgan muammolar bu huquqqiy bazani rivojlanmaganligi, standartlashtirish, mutaxassislar yetishmasligi, moliyaviy savodxonlikni oshirish va bunga xalqaro toifadagi mutaxassislarni jalb qilish kabilarni aytishimiz mumkin. Zero, kelajakda moliya tizimi arxitekturasi islom moliyasi muhim o'rin egallashi kutilmoqda, ayniqsa, moliyaviy barqarorlikda muqobil model sifatida muhim salohiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank boshqaruvining "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori
3. Jo'rayev B. Islomiy moliyalar va bank tizimi:falsafasi,tamoyillari va amaliyoti.T.:"O'zbekiston", 2014
4. Abdullayev R.V., Dusanov S.M. Islom iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlar.T.:"Toshkent islom universiteti",2017
5. Islom moliyasi asoslari/S.M.Dusanov.-Toshkent,2024.

DEMOGRAPHIC TRENDS AND THE LABOR MARKET: METHODOLOGICAL ASPECTS OF ASSESSING FISCAL POLICY EFFECTIVENESS

Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich

PhD., Doctoral researcher at the scientific research center "Scientific foundations and problems of developing the economy of Uzbekistan" under Tashkent state university of economics

In recent decades, demographic transformation has become one of the most decisive structural forces shaping global labor markets and fiscal systems. According to the United Nations World Population Prospects (2025), the global population reached over 8 billion, while fertility rates are declining in developed economies and remaining relatively high in several developing countries²⁷¹. At the same time, aging in Europe and East Asia is increasing old-age dependency ratios, placing significant pressure on pension systems and public finances²⁷². The International Labor Organization (ILO) reports that global youth unemployment

²⁷¹ United Nations (2025). World Population Prospects.

²⁷² European Commission (2025). Ageing Report.